

ANQARA JANGIDA YILDIRIM BOYAZIDNING AMIR TEMURDAN MAG'LUB BO'LISHI SABABLARI VA OQIBATLARI

Mo'minov Azizbek Boxodir o'g'li

Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani 6-maktabi tarix fani o'qituvchisi

Email: uzbekistonmyheart@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1402-yilda bo'lib o'tgan Anqara yaqinidagi jangda Yildirim Boyazidning Amir Temurdan mag'lub bo'lishining bir qancha sabablari keltirib o'tilgan. Shuningdek, maqolada Yildirim Boyazidning mag'lubiyati oqibatlari hamda buning natijasida Amir Temurning keyingi yurishlari, jumladan Ko'niya, Bursa, Izmir shaharlarining egallanishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Boyazid Yildirim, Anqara, Ko'niya, Bursa, Izmir, bosh vazir Ali Posho, yanicharlar sardori Hasan, Sulaymon, Muhammad Sultan, Shayx Nuriddin, Shamsuddin Muhammad Olmalig'i, Anatoliya, Rodos ritsarları.

CAUSES AND CONSEQUENCES OF YILDIRIM BOYAZID'S DEFEAT FROM AMIR TEMUR IN THE BATTLE OF ANKARA

Abstract. This article mentions several reasons why Yildirim Bayazid was defeated by Amir Temur in the battle near Ankara in 1402. The article also provides information about the consequences of the defeat of Yildirim Bayazid and the subsequent campaigns of Amir Temur, including the capture of the cities of Konya, Bursa, and Izmir.

Key words: Amir Temur, Bayazid Yildirim, Ankara, Konya, Bursa, Izmir, Prime Minister Ali Pasha, Janissary captain Hasan, Suleiman, Muhammad Sultan, Sheikh Nuriddin, Shamsuddin Muhammad Almaligyi, Anatolia, Knights of Rhodes.

KIRISH

Buyuk davlatchilimiz tarixida XIV asrning 70-yillarida Markaziy Osiyoda buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur yirik markazlashgan davlat tuzdi. Keyingi davrlarda bu davlat tobora kuchayib, o'sha davrning qudratli davlatlari bo'lgan Min sulolasi Xitoyi, Oltin O'rda, usmoniyalar davlati va mamluklar davlati bilan raqobatdosh qudratli davlatga aylandi. Amir Temurning harbiy yurishlari davomida mamlakat sarhadlari kengayib, yuqorida sanab o'tilgan davlatlarni xavotirga solib qo'ydi. Natijada bu davlatlarning Amir Temurga qarshi mustahkam ittifoqi vujudga keldi. Bunday murakkab siyosiy vaziyatda Amir Temur dushmanlarini birmabir safdan chiqarish, ularning ittifoqini buzib yuborish yo'lini tutdi. Oxir-oqibat ittifoq a'zosi bo'lgan Usmonli Turk davlati sultonı Boyazid Yildirim va Amir Temurning

to‘qnashishi ham muqarrar bo‘lib qoldi. Ikki o‘rtada olib borilgan elchilik aloqalari, maktub almashinuvlari, raqiblar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan harbiy to‘qnashuvlar, buyuk davlatlarning to‘qnashuvidan avval va keyin yuzaga kelgan siyosiy vaziyat, ikki davlat to‘qnashuvining keyingi voqealarga ta’sirini o‘rganish o‘sha davrdagi siyosiy vaziyat, xalqaro munosabatlar, davlatlarning harbiy sohadagi salohiyati, buyuk davlatlarning ichki va tashqi siyosatini tahlil qilish va baholashda, muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tarixiy adabiyotlarni o‘rganish jarayonida shuni aytish mumkinki, tadqiq etilayotgan mavzu alohida ilmiy o‘rganish obyekti bo‘lmagan. Mavzu turli tadqiqotchilarining Amir Temur va temuriylar tarixiga doir asarlarida qisman yoki fragment (parcha) tarzida yoritib o‘tilgan. Bunda tadqiqot mavzusini yoritishda bevosita Amir Temur tarixiga bag‘ishlangan asarlarga murojat etish talab etiladi.

Amir Temur va Temuriylarning tarixshunosligiga oid asarlar ular yaratilgan davr va hudud nuqtai nazaridan bir biridan o‘zining yondashuvlari va ko‘lami bilan farqlanadi. Sovet davrida Amir Temur dahosining yoritilishi ikki davrga bo‘linadi: qirqinchi yillarga va undan keyingi yillardagi davrlarga. Qirqinchi yillargacha sovet tarixchilarining barcha asarlarida Amir Temur shaxsi, uning tarixdagi tutgan ancha qarama-qarshi fikrlar bilan ifodalangan bo‘lsa-da, xolisona yondoshish hollari ham bor edi: V. Bartold, A.Yakubovskiy, A. Belenetskiy, A.Fitrat va M. Massonlar Sohibqironning buniyodkorlik faoliyatining keng yoritdilar. Qirqinchi yillardan so‘ng sovet tarixshunosligida Amir Temur shaxsiyatiga bo‘lgan munosabat keskin salbiy tomonga o‘zgardi. Albatta, bu borada Stalining shaxsiy ko‘rsatmasi bilan SSSR tarixi darsligidan «Temur davlati» bobining chiqartirib yuborilishi temurshunoslikda siyosiy bir ko‘rsatma sifatida qabul qilindi va tarixiy haqiqatni soxtalashtirishga olib keldi.

Mustaqillik yillarida Bo‘riboy Ahmedov, Ashraf Axmedov, Ahmadali Asqarov, Amriddin Berdimurodov, Abdulahad Muhammadjonov, Shodi Karimov, Rustambek Shamsutdinov, Turg‘un Fayziev va shu kabi boshqa taniqli tarixchi olimlarimizning temuriylar davri haqidagi mehnatlari ayniqsa samarali bo‘ldi. Erkin A‘zam o‘g‘li Azimov buyuk bobokalonimiz Amir Temurning siyosiy faoliyatlariga bag‘ishlangan «Amir Temurning davlatni boshqarish siyosati» mavzuyidagi doktorlik dissertatsiyasini yozib tugatgan bir paytda hayotdan ko‘z yumdi. 1999 yilda O‘zbekiston tarixi Davlat muzeyining katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi Irpon To‘xtiyevning: “Temur va temuriylar sulolasining pul moliya siyosati va ularning tangalari” nomli ilmiy asari Eron Islom Respublikasining «Buyuk Oyatullo al-Azami» nashriyotchiligi hukmiga havola etildi.

Hamidulla Dadaboyevning 1996-yilda nashr etilgan “Amir Temurning harbiy mahorati” asari tanlangan mavzuni ochib berishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, Amir

Temurning olib borgan yurishlari, yurishlar davomida qo'llangan turli quroq-yarog'lar, jang qilish uslublari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

XVII-XIX asrlarda jahon tarixnavisligida Amir Temur shaxsi va faoliyatini o'rghanishga qayta-qayta murojaat qilingan. H. Vamberi, L. Lengle, Perrodino, De Sensio, P. Dela Krua, De Marga, F. Nev, J. Kamuy, E. Gallios va boshqa Yevropalik tarixchilar Amir Temurning harbiy san'ati, davlat tizimi va qonunlari hamda iqtisodiy islohotlarini tarixshunoslikda yoritganlar.

Keyingi davrda ham Temur va temuriylarga doir izlanishlar davom etib, Beatrice Mantz, X. Xukxem, Lyusen Keren kabi xorijlik tadqiqotchilar o'z asarlarini yaratdilar.

Turk tadqiqotchilaridan Aka Ismoil, Mehmet Fuad Ko'prulu, Abdulloh Turhal va boshqalarning ilmiy izlanishlari ham tadqiq etilayotgan mavzuni ohib berishda muhim o'rinni tutadi.

Mavzuning manbashunosligiga kelsak, o'sha davr arab, fors, turk, yunon, arman tarixchilari asarlari, elchilik missiyalari tomonidan yozilgan asarlar, kundaliklar, xaritalar va boshqa tegishli manbalar mavzuni yoritishga xizmat qiladi. Shular jumlasiga Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si, Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi arixi Taymur" (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari), Muiniddin Natanziyning "Muntaxab at-tavorixi Muiniy" (Muiniy tarixlar tanlanmasi), Rui Gonzales de Klavixoning kundaliklari, Temur tuzuklari kabi manbalarni keltirish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yildirim Boyazidning mag'lub bo'lishiga sabab bo'lgan bir nechta omillarni sanab o'tish mumkin. Birinchidan, Boyazid qo'shinining uzoq davom etgan janglar davomida toliqqanligi, chunki 1396-yilda salibchilar bilan bo'lib o'tgan Nikopolisdag'i jang, undan keyin Konstantinopolning uzoq vaqt davomida qamal qilish qo'shinni ma'lum darajada susaytirib, holdan toydirgan edi. Ikkinchidan, Boyazidning Temurga nisbatan qo'llagan hiylasi – tog'lik va cho'l hududlarda jang qilishga urinishining ish bermaganligi qo'shining yanada toliqishiga olib keldi. (Ibn Arabshohning yozishicha, Boyazidning Temur bilan ochiq va cho'l hududlarda urushmoqchi bo'lishining yana bir sabablaridan biri o'sha paytda Boyazid davlatida hosil pishiqliigi bo'lib, u hosilni nobud qilmaslik maqsadida shunday yo'l tigan). Uchinchidan, Boyazidning qo'shinni harbiy jihatdan vaqtida isloh qilmaganligi (uning qo'shini otliq – silohdor va piyoda – yanicharlardan iborat edi) va yangi taktikalar ishlab chiqishda sekin va sustligi[2]. To'rtinchidan, harbiy harakatlarning boshlanishidanoq taktik xatoga yo'l qo'yilganligi: qo'shining jang maydonida noqulay o'rashishi, harbiy intizomning bo'shligi kabi omillar. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, ayrim tarixchilar Temurning suv manbalarini egallab olganidan so'ng Anqara jangi allaqachon o'z nihoyasiga yetgan edi, deb hisoblashadi[1]. Jangdan bir necha kun avval Boyazid harbiy tayyorgarlik ko'rish

o‘rniga katta ov uyushtiradi. Mana shu ov paytida issiqlik va suvsizlikdan 5000 kishi halok bo‘ladi. Bu esa jangchilar orasida norozilikning yanada kuchayishiga olib keladi[3]. Mag‘lubiyat sabablaridan yana biri Boyazidning jangchilar maoshini o‘z vaqtida berolmasligi natijasida qo‘sishin orasida norozilik kuchayib, jang paytida tatarlarning Temur tomoniga o‘tib ketganligidir. Buning natijasida Boyazid tuzgan taktikaning barbod bo‘lishi turklar mag‘lubiyatini tezlashtirdi. Oqibatda Boyazid yengilib asir tushishi natijasida Usmonlilar davlati yagona hukmdorsiz qolib, Boyazid o‘g‘illarining o‘zaro kurashi natijasida Anatoliyada fuqarolar urushi boshlanib ketdi. Natijada Usmoniyarlarning yana qayta birlashishi uchun o‘n bir yil kerak bo‘ldi.

Yuqoridagi sabablar Amir Temurning g‘alabaga erishib, uning Kichik Osiyodagi keyingi yurishlariga yo‘l ochdi. Temur shundan keyin jiddiy qarshilikka duch kelmay, Kon‘a (Ko‘niya) viloyatini talon-taroj qiladi. Keyingi hujum Usmoniyarlarning qadimgi poytaxti Bursaga qilinib, Temur bosh vazir Ali Posho, yanicharlar sardori Hasan, sarkadalardan Aynabeylar bilan birga qochgan sultonning o‘g‘li Sulaymonning izidan nabirasi Muhammad Sultonni o‘ttiz ming otliq lashkar bilan Bursaga yuboradi. Muhammad Sultonning to‘rt mingga yaqin otliqlari atigi besh kunda Sulaymonni ta’qib qilib Bursaga yetib keladi. Sulaymon o‘zi bilan katta boylik olishga ulgurmay, kemaga o‘tirib qochib ketishga majbur bo‘ladi. Amir Temur buy‘rug‘iga binoan Shayx Nuriddin Bursa qal‘asiga kirib, Yildirim Boyazidning javohir va kumush to‘la xazinasini egallab, Shamsuddin Muhammad Olmalig‘iyga topshirib, Amir Temurga yubordi. Bursa shahri esa talangach, yoqib yuborildi[4]. Hujumlar natijasida Danieli va Izmir shaharlarining ham taqdiri shunday yakun topdi. Amir Temurning Anatoliyaga yurishi chog‘idagi eng muhim janglardan biri bu Izmir qal‘asining fath etilishidir. Izmir shahrining aholisini asosan greklar va Rodos ritsarlari tomonidan himoya qilib turilgan xristianlar tashkil etgan. Amir Temur shaharni mudofaa qilib turgan Rodos ritsarlardan shaharni jangsiz topshirish, islomni qabul qilish va o‘lpon to‘lashni talab qiladi[1]. Ammo ular rozi bo‘limgach, Temur shaharni to‘pga tutishni buyuradi. Temur shaharni qamal qilib turgan paytda Izmir dengiz orqali boshqa shaharlardan yordam ola boshlaydi. Yordamni uzib qo‘yish maqsadida Temur bandargohni toshlar bilan to‘ldirishga buyruq beradi. Sharafiddin Ali Yazdiyning ma’lumotiga ko‘ra, Temur yordamga kelgan kemalarga qarata kofirlarning boshini to‘pga qo‘yib otishni buyuradi. Kemaga tushgan boshlarni ko‘rib ular vahimadan qochib ketadilar. Sohibqiron Izmirni ikki haftaga qolmay zabit etadi[4]. Shundan keyin Temur Anatoliyadan Gurjistonga qaytadi.

XULOSA

Amir Temur va Yildirim Boyazid o‘rtasida kelib chiqqan to‘qnashuv oqibatida Kichik Osiyodagi qudratli Usmonli Turk davlatining inqirozga yuz tutib, parchalanishi holati yuzaga keldi va bu davlatning birlashishi uchun ancha vaqt kerak bo‘ldi. Anqara jangidan so‘ng Amir Temur Yevropa xaloskoriga aylanib, ko‘pgina mamlakatlar tomonidan buyuk hukmdor sifatida e’tirof etilishiga sabab bo‘ldi. Amir Temurning

g‘alabasi Yevropani usmoniyalar tajovuzidan saqlab qolib, Sharq va G‘arb o‘rtasidagi aloqalarning rivojlanishiga imkon yaratdi. Xulosa qilib aytganda, Anqaradagi jang tarixdagi eng muhim voqealardan biri bo‘lib tarixda qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Phokion Kotzageorgis, Ömer Özylmaz. TIMUR AGAINST THE OTTOMANS AND OTTOMAN INTERREGNUM (Fetret Devri). ARISTOTLE UNIVERSITY OF THESSALONIKI. P. 15.
2. Shirogorov V. V. Ukrainian War: The Armed Conflict for Eastern Europe in XVI – XVII centuries. Volume II: Turkish onslaught: Balkans – Black Sea – Caucasus (To the end of XVI century) M.: Molodaya Gvardiya, 2018. P. 657.
3. Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур (Тарж. А. Махкамов). – Т.: “Фан”, 1994. Б. 194.
4. Шарафуддун Али Йаздий. Зафарнома. – Т.: “Шарқ”, 1997. Б. 263.

REFERENCES

1. Phokion Kotzageorgis, Ömer Özylmaz. TIMUR AGAINST THE OTTOMANS AND OTTOMAN INTERREGNUM (Fetret Devri). ARISTOTLE UNIVERSITY OF THESSALONIKI. P. 15.
2. Shirogorov V. V. Ukrainian War: The Armed Conflict for Eastern Europe in XVI – XVII centuries. Volume II: Turkish onslaught: Balkans – Black Sea – Caucasus (To the end of XVI century) M.: Molodaya Gvardiya, 2018. P. 657.
3. Ivanin M. Two great generals: Genghis Khan and Amir Temur (Translated by A. Makhkamov). - T.: "Fan", 1994. P. 194.
4. Sharafuddun Ali Yazdi. Zafarnoma. - T.: "Sharq", 1997. P. 263.